

Fan/modul kodi MECFM105	O'quv yili 2024-2025	Semestr I	ECTS-kreditlar 5
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	60	90	150

1.

2.

1. Fanning mazmuni

Fanning maqsadi – talabalarda mutaxassislik fanlarini o'rgatishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar, mahsus fanlarni o'qitishda nazariy va amaliy bilimlarni, shuningdek kompetentsiyalarni shakllantirishdan iborat. Xalqaro talablar darajasida mutaxassislik fanlarini chuqur o'rganishni nazarda tutuvchi mazkur fan dasturi davlat moliyaviy nazorati va audit ta'lim yo'nalishi fani talablarini ham to'liq inobatga oladi.

Fanning vazifasi – talabalarga mahsus fanlarning mazmuni va talablarini, jumladan, buxgalterning kasbiy va axloqiy majburiyatlari asosida moliyaviy hisobotni taqdim etishning kontseptual qoidalari, tadbirkorlik sub'ektlari aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromad va xarajatlarini tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, xodimlarni rag'batlantirish, soliqqa tortish, aksiyaga to'lovlar, guruhlashgan moliyaviy hisobotlarni tuzish, xorijiy valyuta hamda pul oqimlari to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etishning metodologik asoslarini o'rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I mavzu: Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari

Ta'lim tamoyillari pedagogning faoliyatini va talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va yo'l-yo'riqlarini o'rganish, ta'lim tamoyillari har ikkala faoliyatning ya'ni pedagog va talaba tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarini ham umumlashtirish, ta'lim qoidalari o'qitishning eng muhim masakalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi ekanligi.

2-mavzu: Ta'lim mazmuni va o'qitish mazmunini tuzishda o'quv - me'ëriy hujjatlarining ahamiyati

Ta'lim mazmuni tanlab olish va shakllantirish, o'quv dasturlashtirish va metodik xujjatlar, ta'lim vositalari ishlab chiqish, ta'lim natijalariga qo'yilgan talablarni shakllantirish, kasbiy tayërgarlik sifatini nazorat qilish tizimi ishlab chiqish, ta'lim muassasasi attestatsiya qilish, kasbiy mastahat, kasbga yo'naltirish, kasbiy tanlash ishlari tashkil etish, DT'Sni ishlab chiqishni tashkil etish, mualliflik jamoalarini tuzish; alohida bo'limlarni ishlab chiqish, ularni dastlabki baholash va o'zgartirishlar kiritish; DT'S loyihasini tuzish, uni ekspert baholash; yakuniy ishlov berish, tahrirlash, rasmiylashtirish va tasdiqlash; DT'Sning mazmunini aniqlash, Davlat va soha me'ëriy, texnik va texnologik hujjatlar; mehnat bozori talablari.

3-mavzu: Ta'lim maqsadlarini belgilash-mutaxassislik fanini o'qitishni loyihalash va rejalashtirishning asosi sifatida

Ta'lim tizimidagi o'quv jarayoni o'quv maqsadlarini aniqlash, darsning maqsadini umumiy holda belgilash, erishgan natijalarni baholash, maqsadni belgilashda pedagogik texnologiya, dars maqsadini belgilashda aniqlik bo'lishiga erishish, maqsadlarni belgilash nazorat va baholash ishini yengillatish, ta'lim texnologiyalarini ko'lashtirish birinchi qadam bo'lgan aniqlashirilgan maqsadlarni ishlab chiqish, maqsad pedagogga nazorat ishini belgilashda, baholashda va usullarni aniqlashdan iborat.

4-mavzu: Maxsus fanini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan o'qitish metodlari

O'quv axborot mazmuni hajmi va murakkabligi, maqsad va o'quv fanini xususiyati, ta'lim berish usullarini o'quv axborotini egallashlariga ta'siri. C. Mayerga muvofiq, 72 soatdan o'tganda, ma'lumotni eshitish orqali qabul qilgandan so'ng tinglovchi xotirasida 10 %, ko'rish orqali (ko'rganida) - 20%, ko'rib va eshitish orqali (ko'rganida va eshitganda) - 50%, ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada - 70%, ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada, amaliy imkoniyatlarni qo'llanilganda 90% axborot qolishligi natijalari. Ta'lim oluvchilarni o'quv imkoniyatlari: tayergarlik darajasi, umumiy o'quv malakalarini shakllanganligi, faolligi, qiziqishi va yo'naltirilganligi, eshi, ishlash qobiliyati, o'ziga xos imkoniyatlari va qobiliyatlari. Vaqt sarfi: 1) o'quv dasturida yil davomida o'quv faniga, uning alohida mavzulariga ajratilgan vaqt; shunchalik cheklangan bo'lishi mumkin, bu esa ko'p vaqt oladigan usullarni maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llash imkonini yaratishi; 2) vaqt u eki boshqa usulni tayirlash va amalga oshirishda mehnat sarfini ketish nuqtayi nazaridan muhim omil hisoblanishi.

5-mavzu: Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ta'limning tashkilotlashirish shakllari

Ta'limni tashkilotlashirish shakllari: mohiyati va mazmuni. Guruhlarda hamkorlikda texnikalarining mohiyati va ahamiyati. Guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkilotlashirish etish tashkilotlashirish texnologiyasi. Hamkorlikda o'zaro o'qitish turlari va ularning mohiyati.

6-mavzu: Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim vositalari.

O'quv jarayonida ta'lim vositalarining o'rni va ahamiyati. Ta'lim vositalarining tasnifi. O'UM turlari va ulardan foydalanish. Grafik tashkilotlashirish etuvchilarning o'rni va ahamiyati. Ta'lim berishning texnik vositalari

(TTV), Yordamechi ta'lim vositalari (YOTV), O'quv-uslubiy materiallar (O'UM).

7-mavzu: Maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish va rejalashtirish asoslari

Ta'limga texnologik endashuvning mohiyati va uning uzluksiz rivojlanishi. Ta'limni texnologiyalashtirish sohasidagi asosiy toifa va tushunchalar. O'quv mashg'ulotida o'qitish texnologiyasi modelining mazmuni va uning tuzilishi. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi mazmuni va uning tuzilishi.

8-mavzu: Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini loyihalashtirish va rejalashtirish asoslari

Ma'ruza shaklida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Ma'ruza turlari va ularning tavsiflari. Seminar shaklida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Seminar mashg'ulotining turlari va ularning tavsiflari. Ma'ruza - davomli vaqt ichida katta hajm bo'yicha monologik o'quv materialini baen qilish. Ma'ruza - o'qitishni tashkilotlashirish yetakchi shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi: yo'naltiruvchilik-talabalarni o'quv materialining asosiy holatlariga, uni kelgusi ish faoliyatidagi o'rni va ahamiyatiga diqqat qilish imkoniyati.

9-mavzu: Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan innovasion texnologiyalar

O'quv loyihasi va uning mazmuni. Loyihaviy ta'limning asoslari. O'quv-loyihaviy faoliyat. O'quv loyihasining uslubiy pasporti. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik hamda o'quv qo'llamalarning zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o'quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy jihatlariga ko'ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg'ulotlarni samarali tashkilotlashirish etish imkonini beruvchi pedagogik shart - sharoitlarning mavjudligi, pedagog va talabalar o'rtasida sanimiy, ijobiy munosabatlarning qaror topishi.

10-mavzu: Maxsus fanlarni o'qitish natijalari nazorati

Talabalarining o'quv yutuqlari nazoratining ahamiyati va uning vazifasi. O'qitish natijalari nazoratida testning o'rni. Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish testlarni ishlab chiqish yo'llari. Bilimni tekshirish va baholash - ta'lim jarayonining tarkibiy qismi ekanligi,

talabalarining o'quv faoliyatini darsda, uyda og'zaki, e'zma va amaliy topshiriqlar e'rdamida tizimli nazorat yo'li orqali amalga oshirilishi. Tekshirish va baholash e'rdamida bilim, ko'nikma va malakalar aniqlash, nazorat qilish, ta'lmiy, tarbiyaviy, o'zgartirish kiritish va axborotli vazifalarni bajarish lozimligi. Nazorat qilishning vazifasi – talabalarni ta'lim bosqichini har bir bosqichida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, talaba o'qituvchini savoliga javobgar ekanligi.

III. Amaliy mashg'ulotlar buyicha ko'rsatma va tavsiyalar (Seminar mashg'ulotlari), (Mustaqil ta'lim), (Kurs ishi) o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi)

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-mavzu:** Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanning maqsad va vazifalari.
- 2-mavzu:** Ta'lim mazmuni va o'qitish mazmunini tuzishda o'quv - me'riy hujjatlarining ahamiyati
- 3-mavzu:** Ta'lim maqsadlarini belgilash-mutaxassislik fanini o'qitishni loyihalash va rejalashtirishning asosi sifatida
- 4-mavzu:** Maxsus fanini o'qitish jaraenida qo'llaniladigan o'qitish metodlari
- 5-mavzu:** Maxsus fanlarni o'qitish jaraenida qo'llaniladigan ta'limning tashkillashtirish shakllari
- 6-mavzu:** Maxsus fanlarni o'qitish jaraenida qo'llaniladigan ta'lim vositalari.
- 7-mavzu:** Maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish va rejalashtirish asoslari.
- 8-mavzu:** Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini loyihalashtirish va rejalashtirish asoslari
- 9-mavzu:** Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar
- 10-mavzu:** Maxsus fanlarni o'qitish natijalari nazorati

IV. Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

(o'quv rejaga ko'ra fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagani)

V. Mustaqil ishini tashkil etishning shakli va mazmuni

“Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fani bo'yicha 70410506 “Davlat moliyaviy nazorati va audit” mutaxassisligida o'quv rejaga muvofiq mustaqil ta'lim soatlarida mustaqil ishlar rejalashtirilgan.

Mustaqil ish talabamning mustaqil ta'lim soatlarida bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil etishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'rganadi va o'rganilgan

mavzu yozma shaklda bayon etilib, ilmiy rahbardan maslahatlar olib boriladi. Mustaqil ishini bajarishdan maqsad, talabamning o'qishi davomida olgan bilimni mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va magistrlik dissertatsiyalari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Professional buxgallerlar axloq kodeksi.
2. Xolislik uchun axloqiy talablar.
3. Kasbiy majburiyatlarining ziddiyatlari.
4. Kasbiy malakaga ega bo'lish bosqichlari.
5. Moliyaviy hisobotlarning maqsadi.
6. Moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami.
7. Moliyaviy hisobotlarni tuzish tamoyillari.
8. Moliyaviy hisobotning taqdim etish davomiyligi.
9. Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobotning tarkibi.
10. Foyda yoki zarar bo'limida yoki foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobotda taqdim etiladigan ma'lumotlar.
11. Boshqa umumlashgan daromadlar bo'limida aks etiriladigan ma'lumotlar.
12. Davr foydasi yoki zarari.
13. Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad.
14. Daromadni baholash.
15. Tovarlarini (mahsulotlar) sotish. Hizmatlarni ko'rsatish.
16. Fozklar. Royalti. Dividendlar.
17. Asosiy vositalarni tan olish va baholash.
18. Eskiirish hisoblanadigan qiymat va davr.
19. Nomoddiy aktivlar: aniqlash va nazorat.
20. Tovar-moddiy zaxiralarni baholash.
21. Moliyaviy instrumentlarni taqdim etish.
22. Moliyaviy aktiv. Moliyaviy majburiyat.
23. Ulushli instrument. Haqqoniy qiymat.
24. Moliyaviy instrumentlarni tan olish va baholash.
25. Ijarani aniqlash. Ijara shartnomasi.
26. Ijarachi. Ijaraga oluvchi.
27. Ijrani tan olish.
28. Moliyaviy ijara. Operatsion ijara.

<p>29. Xodimlarning daromadlari. 30. Bandalikdan-so'nggi nafaqalar. 31. Ishdan bo'shatish nafaqalari. 32. Xodimlarning uzoq muddatli daromadlarini to'lash bo'yicha fond egalik qiladigan aktivlar. 33. Ulushli instrumentda hisoblanadigan aksiyaga asoslangan to'lov operatsiyalari. 34. Hizmetlar qabul qilinadigan operatsiyalar. 35. Taqdim etiladigan moliyaviy instrumentlarning haqqoniy qiymatini aniqlash. 36. Aksiyalarga to'lovlarni hisoblashda soliqlar. 37. Buxgalteriya hisobi bo'yicha foyda. Soliq solinadigan foyda (soliq zarari). 38. Soliq xarajati (soliq daromadi). 39. Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari. Muddati uzaytirilgan soliq aktivlari. 40. Vaqtinchalik farqlar. Soliq bazasi. 41. Hisobot daridan keyingi xodisalar. 42. Hisobot davridan keyingi, tuzatishlar kiritilishini talab etadigan hodisalar. 43. Hisobot davridan keyingi, tuzatishlar kiritilishini talab etmaydigan hodisalar. 44. Dividendlar. 45. Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuv 46. Birgalikdagi nazorat. 47. Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar turlari. 48. Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuv tomonlarining moliyaviy hisobotlari. 49. Guruhlashgan moliyaviy hisobotning o'ziga xos xususiyatlari. 50. Bosh korxon. Sho'ba korxon.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>	<p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Talaba bilishi kerak: “Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba: – buxgalter kasbiy va ahloqiy majburiyatlari; – moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish haqida tasavvurga ega bo'lishi; – daromad, ijara, moliyaviy instrumentlar, xodimlarni rahbatlantirish; – aksiyaga asoslangan to'lovlar tavsifi; – soliqa tortish tartibi; – birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar;</p>
---	---

<p>4.</p> <p>qurultirilgan moliyaviy hisobotlarning xususiyatlari; xorijiy valyuta hamda pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish malakalariga ega bo'lishi kerak.</p> <p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'ruzalar; - real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; - esse, tezis va maqolalar yozish; - vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; - jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim; - muhokamalarda ishtirok etish; - kichik guruhlarda ishlash; - loyiha ishi bajarish; - mustaqil ishlarni bajarish; - taqdimot tayyorlash; - turli darajadagi testlarni yechish; - so'rov o'tkazish. 	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rnatilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, mustaqil ta'lim bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarish hamda yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini topshirish.</p> <p>Adabiyotlar ro'yxati: Asosiy adabiyotlar: 1. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshiriladigan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Toshkent, 2018-yil 5-iyun 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi Pl-49/17-sonli —2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. 3. Hakimova M.F., Lutfullayeva N.N., Abdullayeva R.M., Fayzullayeva D.M. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. — T.: IQTISODIYOY, 2019.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p>
<p>5.</p>	<p>6.</p>

3. Tojiboyeva D. Iqtisodiy nazariyasi fanini o'qitish metodikasi. – T.: Iqtisodiyot, 2003. – 223 b. 4. Fayzullayeva D. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. – T.: Iqtisodiyot, 2013.

Axborot manbaalari

1. <https://president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti.
2. <https://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
3. <https://www.imv.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
4. <https://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi.
5. <https://www.deloitte.com> – Deloitte & Touche aud. tashkiloti.
6. <https://www.pwc.com> – Pricewaterhouse Coopers aud. tashkiloti.
7. <https://www.kpmg.com> – KPMG auditorlik tashkiloti.
8. <https://www.ev.com> – Ernst & Young auditorlik tashkiloti.
9. <https://www.ifrs.org/ua/mezhdunarodny-e-standarty-finansovoj-otchyotnosti/>;
10. www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/

7. O'quv dasturi universitet Kengashining 2024-yil 30-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8. Fan modul uchun mas'ullar:

A. Shodiyev – TerDU, "Buxgalleriya hisobi va statistika" kafedrasida katta o'qituvchisi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

9. Taqrizchi:

Rajabov O'D. – Termiz davlat universiteti, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasida dotsenti, i.f.d.